

## FARG'ONA VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI


*Dastlabki ma'lumot  
2024- yil yanvar-may*



*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Tel. 73-241-97-68*

**Statistik ma'lumotlar** jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

## Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024- yil 1-iyun holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 7 713 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 147 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 7 566 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan

**Chakana savdo aylanmasi** – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024- yilning yanvar-may oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 10 153,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 108,1 % ga yetdi. Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 1 075,8 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 140,9 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 9 078,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 105,2 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 932,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 119,6 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>10 153,9</b>	<b>108,1</b>
<b>shaharlar</b>		
Farg'ona	1 913,7	109,7
Qo'qon	1 367,5	109,2
Quvasoy	199,8	108,4
Marg'ilon	1 270,0	108,5
<b>tumanlar</b>		
Oltiariq	541,9	106,3
Qo'shtepa	202,3	107,3
Bag'dod	250,8	108,7
Buvayda	596,0	106,0
Beshariq	472,0	107,1
Quva	543,3	107,7
Uchko'prik	1 120,4	108,4
Rishton	243,1	106,9
So'x	265,0	104,3
Toshloq	333,7	106,3
O'zbekiston	147,9	107,8
Farg'ona	298,5	106,5
Dang'ara	177,8	109,0
Furqat	100,4	106,4
Yozyovon	109,6	106,7


2024- yilning yanvar-may oylarida 2023- yilning yanvar-may oylariga nisbatan viloyatning Farg'ona sh (**109,7** %), Qo'qon sh (**109,2**) va Dang'ara (**109,0**) tumanida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-may)



So'nggi 5 yillikda (2020- 2024- yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan 108,3 % ni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda) (2023- yil, 2024-yil yanvar-may oylari)



2024- yilning yanvar-may oylarida o'sish sur'ati **108,1 %** ni tashkil qildi.

Ulushi, foizda



Hajmi, mlrd. so'm

Farg'ona sh.	1 913,7
Qo'qon sh.	1 367,2
Marg'ilon sh	1 270,0
Uchko'prik	1 120,4
Buvayda	596,0
Quva	543,3
Oltiariq	541,9
Beshariq	472,0
Toshloq	333,7
Farg'ona	298,5
So'x	265,0
Bag'dod	250,8
Rishton	243,1
Qo'shtepa	202,3
Quvasoy sh	199,8
Dang'ara	177,8
O'zbekiston	147,9
Yozyovon	109,6
Furqat	100,4

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Farg'ona shahri 18,8 % bilan 1 913,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Furqat tumani 1,0 % bilan 100,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023 - yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.

## Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi

2024-yilning yanvar-may oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 9 078,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-may oylariga nisbatan 5,2% ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 89,4 % ni tashkil etdi.


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 40,9 % ga o'sdi va 1 075,8 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 10,6 % ulushiga to'g'ri keldi.



## Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)




## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha So'x t (99,2 %), Toshloq t (99,0 %) va Quvasoy (98,7 %) shahari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 10,6 % ni tashkil etib, eng katta ulush Uchko'prik (45,8 %), Dang'ara (22,7 %), tumanlarida kuzatildi.

10,6 %

89,4 %




Yirik korxonalar

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik




**Hududlar kesimida ma'lumot, ming so'mda**



2024- yilning yanvar-may oylari holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

2 494,5 ming. so'mni (2023- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 105,8 %) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Farg'ona (5 932,1 ming. so'm), Marg'ilon (5 001,9 ming. so'm) va Qo'qon (4 428,4 ming. so'm) shaharlari hissasiga to'g'ri keldi.






Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati (2024- yil yanvar-may), foizda



Dehqon bozorlari



Chorva bozorlari


**Dehqon (oziq-ovqat) bozori** – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy voki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>933,0</b>	<b>119,6</b>
<b>shaharlar</b>		
Farg'ona	127,4	150,3
Qo'qon	86,7	101,2
Quvasoy	20,2	109,3
Marg'ilon	90,4	97,5
<b>tumanlar</b>		
Oltiariq	25,1	128,8
Qo'shtepa	29,2	64,8
Bag'dod	69,3	381,5
Buvayda	113,8	102,2
Beshariq	112,5	133,3
Quva	77,9	145,8
Uchko'prik	26,2	94,9
Rishton	52,9	124,3
So'x	18,3	167,7
Toshloq	18,0	93,5
O'zbekiston	20,1	121,6
Farg'ona	9,6	54,9
Dang'ara	4,2	87,9
Furqat	0,7	53,5
Yozyovon	30,7	117,3


\* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

**Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi  
o'sish sur'atlari  
(2024- yil yanvar-may)**














**Hududlar kesimida uyushmagan  
savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm  
(2024- yil yanvar-may)**



Viloyat bo'yicha 2024-yilning yanvar-may oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 932,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 119,6 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 592,6 mlrd. so'mni (119,9%), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 340,3 mlrd so'mni tashkil etdi (119,2 %).













2024-yilning yanvar-may oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 592,6 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (211,3 mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

**Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi**

<p><b>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</b></p> <p><b>211,3 mlrd. so'm</b></p>  <p>35,7 %</p>	<p><b>Non va non mahsulotlari</b></p> <p><b>54,0 mlrd. so'm</b></p>  <p>9,1 %</p>	<p><b>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</b></p> <p><b>101,8 mlrd. so'm</b></p>  <p>17,2 %</p>
<p><b>Tovuq go'shti</b></p> <p><b>27,3 mlrd. so'm</b></p>  <p>4,6 %</p>	<p><b>Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</b></p> <p><b>37,0 mlrd. so'm</b></p>  <p>6,3 %</p>	<p><b>Tuxum</b></p> <p><b>36,5 mlrd. so'm</b></p>  <p>6,2 %</p>
<p><b>Ziravorlar</b></p> <p><b>20,1 mlrd. so'm</b></p>  <p>3,4 %</p>	<p><b>Sut va sut mahsulotlari</b></p> <p><b>16,6 mlrd. so'm</b></p>  <p>2,8 %</p>	<p><b>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</b></p> <p><b>14,7 mlrd. so'm</b></p>  <p>2,5 %</p>
<p><b>Tuzlamalar</b></p> <p><b>15,7 mlrd. so'm</b></p>  <p>2,6 %</p>	<p><b>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</b></p> <p><b>10,3 mlrd. so'm</b></p>  <p>1,6%</p>	<p><b>Nooziq-ovqat tovarlar</b></p> <p><b>47,3 mlrd. so'm</b></p> <p>8,0 %</p>

2024- yilning yanvar-may oyida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi 340,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 265,3 mlrd.so‘m, qo‘y va echkilar – 69,5 mlrd. so‘mni, otlar – 3,6 mlrd. so‘mni, parrandalar – 1,9 mlrd. so‘mni tashkil qildi.


### Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

<p><b>2 yoshdan katta bo‘lgan qoramollar</b></p> <p><b>144,1</b> <i>mlrd. so‘m</i></p>  <p>42,4 %</p>	<p><b>1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar</b></p> <p><b>68,1</b> <i>mlrd. so‘m</i></p>  <p>20,0 %</p>	<p><b>1 yoshgacaha bo‘lgan yosh mollar</b></p> <p><b>53,1</b> <i>mlrd. so‘m</i></p>  <p>15,6 %</p>
<p><b>Qo‘ylar</b></p> <p><b>68,2</b> <i>mlrd. so‘m</i></p>  <p>20,0 %</p>	<p><b>Otlar</b></p> <p><b>3,6</b> <i>mlrd. so‘m</i></p>  <p>1,0 %</p>	<p><b>Echkilar</b></p> <p><b>1,3</b> <i>mlrd. so‘m</i></p>  <p>0,4 %</p>
<p><b>Kurka, o‘rdak, g‘oz</b></p> <p><b>0,6</b> <i>mlrd. so‘m</i></p>  <p>0,2 %</p>	<p><b>Tovuqlar</b></p> <p><b>1,0</b> <i>mlrd. so‘m</i></p>  <p>0,3 %</p>	<p><b>Quyionlar</b></p> <p><b>0,2</b> <i>mlrd. so‘m</i></p>  <p>0,1 %</p>
<p><b>Qushlar</b></p> <p><b>0,1</b> <i>mlrd. so‘m</i></p>  <p>0,01%</p>		

2024- yil 1- iyun holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 944 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 3 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 941 tani tashkil qildi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>277,6</b>	<b>106,4</b>
<b>shaharlar</b>		
Farg'ona	107,2	104,8
Qo'qon	22,9	114,5
Quvasoy	4,7	103,2
Marg'ilon	42,2	117,3
<b>tumanlar</b>		
Oltiariq	8,2	106,6
Qo'shtepa	5,2	92,7
Bag'dod	4,9	101,8
Buvayda	3,5	86,0
Beshariq	7,4	105,2
Quva	9,7	106,0
Uchko'prik	9,1	105,6
Rishton	6,7	80,5
So'x	7,4	108,3
Toshloq	8,2	109,5
O'zbekiston	4,7	105,4
Farg'ona	7,2	96,4
Dang'ara	6,9	114,5
Furqat	6,5	112,4
Yozyovon	5,0	107,0

2024- yilning yanvar-may oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 277,6 mlrd. so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan 106,4 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 97,3 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>1 764,0</b>	<b>100,0</b>
<b>Shaharlar</b>		
Farg'ona	537,3	30,5
Qo'qon	796,7	45,2
Quvasoy	5,1	0,3
Marg'ilon	125,0	7,1
<b>Tumanlar</b>		
Oltiariq	14,0	0,8
Qo'shtepa	2,8	0,2
Bag'dod	2,2	0,1
Buvayda	12,8	0,7
Beshariq	2,1	0,1
Quva	1,2	0,1
Uchko'prik	12,8	0,7
Rishton	2,2	0,1
So'x	17,7	1,0
Toshloq	13,5	0,8
O'zbekiston	2,3	0,1
Farg'ona	2,5	0,1
Dang'ara	60,6	3,4
Furqat	25,3	1,4
Yozyovon	127,8	7,2


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Qo'qon (796,7 mlrd. so'm), Farg'ona (537,3 mlrd. so'm) va Marg'ilon (125,0 mlrd. so'm) shaharlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so'm)



2024- yilning yanvar-may oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 1 764,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 30,4 % ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 729,7 mlrd. so'm (o'sish sur'ati – 128,5 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – 1 034,3 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – 3,1 m ko'paydi) tashkil qildi.


## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda





**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

## Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2024- yilning yanvar-may oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 6 581,9 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 8,0 % ga o‘tdi.

## Savdo aylanmasi va ulushi



**Yirik korxonalar**



**Mikrofirma va kichik korxonalar**

Kichik biznes subyektlarining 6 156,5 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 106,0 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 93,5 % ni tashkil qildi.

## ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

2024- yil 1- iyun holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni 4 408 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 25 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 4 383 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar Uchko'prik t. (1,8 m.), Marg'ilon sh. (1,1 m.) va Furqat t. (1,1 m.) da kuzatildi.

	Hajmi, mlrd. so'm	2023- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>6 581,9</b>	<b>108,0</b>
<b>Shaharlar</b>		
Farg'ona	1 359,8	103,2
Qo'qon	1 406,3	107,7
Quvasoy	219,9	107,4
Marg'ilon	1 554,5	110,5
<b>Tumanlar</b>		
Oltiariq	136,8	107,7
Qo'shtepa	54,0	102,7
Bag'dod	48,6	107,8
Buvayda	148,5	81,8
Beshariq	76,7	98,0
Quva	35,7	99,3
Uchko'prik	663,7	185,4
Rishton	23,2	93,5
So'x	6,0	76,3
Toshloq	392,4	83,4
O'zbekiston	94,7	97,5
Farg'ona	161,0	100,7
Dang'ara	149,4	86,2
Furqat	26,4	110,2
Yozyovon	24,1	92,4